

TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATISH SHARTNOMASI

Qarashina shaharchasi

4-son

2022 yil "24" 01

“Ozbektelekom” (keyingi (korxona nomi) o‘rinlarda “Operator” deb yuritiladi) nomidan nizom (Ustav, Nizom, ishonchnomalar va raqami) asosida ish yurituvchi Abdumurodov Dilshod Oltiboyevich bir tomondan (vazifasi, familiyasi, ismi) va Dehqonobod tuman tibbiyot birlashmasi (keyingi o‘rinlarda (tashkilot, korxona, xo‘jalik nomi) “Abonent” deb yuritiladi) nomidan nizom asosida ish (Ustav, nizom) yurituvchi Shavkat Amirov, ikkinchi tomondan, quyidagilar (vazifasi, familiyasi, ismi) to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Operator Abonentga quyidagi telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish, hamda o‘z balansidagi aloqa inshootlari bilan aloqa vositalarini ta‘mirlash va belgilangan tartibda ularning soz va saqlangan holda bo‘lishini ta‘minlash majburiyatini oladi: Abonent toifasi byudjet (byudjet hisobidagi, xo‘jalik hisobidagi) Oxirgi qurilma turlari, ularning soni 50 (telefon apparati, modem, faks, teleks, radiotelefon va h.)

t\b	Ko‘rsatiladigan xizmat turi	Apparatlar miqdori	Raqamlari	1 oylik tarif
1	Shahar ichidagi telefon aloqasi	x	x	x
2	Tuman ichidagi telefon aloqasi	y	x	x
3	Parallel va qo‘shimcha telefonlar	x	x	x
4	Shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi	x	x	x
5	Telegraf xizmati	x	x	x
6	Alovida va qo‘shimcha xizmatlar	50	x	4950000

356 1.2. Abonent ko‘rsatilgan xizmatlarni qabul qilish, O‘zbektelekom tomonidan 2022 yil “05” yanvar da tasdiqlangan narxnomalar bo‘yicha telefon-telegraf aloqasi va qo‘shimcha xizmatlar haqini to‘lash majburiyatini oladi.

1.3. Ushbu shartnoma bahosi 14850.000 (one thousand four hundred eighty five million soums) ming so‘mini tashkil etadi va tarif miqdorining oshishi yoki kamayishiga qarab o‘zgarishi mumkin.

1.4. Ushbu shartnoma taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2021 yilning “31” mart gacha amal qiladi.

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Operatorning majburiyatları: a) ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan sifatli telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish; b) telefon - telegraf aloqasi tizimidagi nosizliklar to‘g‘risidagi Abonentning talabnomalarini o‘z vaqtida hisobga olish va nazorat muddatlarida bartaraf etish; v) Abonentning yangi telefon raqamlari berish yoki telefonini uzib qo‘yish haqidagi talabnomalarini o‘z vaqtida hisobga olish va bajarish; g) Abonent sotib olgan aloqa vositalari hamda oxirgi qurilmalarni (telefaks, teleks, videoteks, modem, ma’lumotlar uzatish apparatlari, radiotelefon va h.) ro‘yxatga olish; d) yangi telefon stansiyalari ishga tushirilishi, telefon tarmoqlarining qayta jihozlanishi munosabati bilan telefon raqamining o‘zgartirilishi to‘g‘risida Abonentni kamida 10 kun oldin yozma ravishda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish

2.2. Operatorning huquqlari: a) yangi telefon stansiyalari ishga tushirilishi va telefon tarmoqlarining qayta jihozlanishi munosabati bilan Abonentning roziligidan telefon raqamini almashtirish; b) Abonent o‘zboshimchalik bilan telefon liniyasiga ulangan, Operator ro‘yxatiga olinmagan taqdirda, tegishli dalolatnomani 357 rasmiylashtirish va tegishli sertifikatlari bo‘limgan oxirgi qurilmalarni uzib tashlash; v) kunning istalgan vaqtida oxirgi qurilmalarning texnik nazoratini amalga oshirish; g) to‘lov kobiliyatiga ega bo‘limgan Abonentning telefonlari va boshqa oxirgi qurilmalarni uzib qo‘yish;

2.3. Abonentning majburiyatları: a) ko‘rsatilgan xizmatlar uchun ushbu shartnomada belgilangan tartibda va miqdorda haq to‘lash; b) Operator balansidagi va Abonent foydalanayotgan kabellar, telefon simlari va boshqa asbob-uskunalarining soz va butun holatda saqlash, o‘ziga tegishli yoki boshqa shaxslardan ijara olingan telekommunikatsiya vositalarining texnik me‘yorlarga muvofiq bo‘lishini ta‘minlash; v) aloqa xizmatidagi barcha nosozliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida Operatorga xabar berish; g) Operatorning ruxsatsiz, ro‘yxatga olinmagan va muvofiqlik sertifikati bo‘limgan holda qo‘shimcha telefon rozetkalari o‘rnatmaslik, parallel telefon apparatlari va boshqa oxirgi qurilmalarni ulamaslik; d) har oyda Operator bilan hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini tuzish. ye) telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish qoidalari va mazkur shartnoma shartlariga rioya qilinishini tekshirish yoki o‘zining talabnomasi bo‘yicha ta‘mirlash ishlarni amalga oshirish uchun kelgan Operatorning xodimlarini o‘z hududiga to‘sitsiz o‘tishini ta‘minlash va xizmat vazifalarini bajarish uchun sharoit yaratish.

2.4. Abonentning huquqlari: a) sifatli telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishini talab qilish; b) Operatorning aybi bilan aloqa xizmati ko'rsatilmagan davr uchun bu haqda Operatorga talabnomaga berilgan sanadan boshlab aloqa tiklangan sanaga qadar xizmat haqini to'limaslik; v) telefon raqamini saqlash sharti bilan oxirgi qurilmani ma'lum bir vaqtgacha uzib qo'yish haqida ariza berish; g) telefon raqamini saqlamasdan oxirgi qurilmani uzish haqida ariza berish.

3. ISHLAR (XIZMATLAR) QIYMATI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent oldindan to'lov tartibida har oylik abonent to'loving 100 % ni 4950.000 so'm miqdorda to'lov topshiriqnomasi orkali pul o'tkazish yo'li bilan har oy boshlanishidan kamida 10 kun oldin to'laydi.

3.2. Yangi avans summasini Operator taqdim etgan hisobvaraqturaga asosan o'tkazib berish uchun javobgarlik Abonentga yuklatiladi. Avans summasi to'liq sarflangandan so'ng keyingi muddat uchun to'lov amalga oshirilmagan taqdirda Operator xizmat ko'rsatishni to'xtatib qo'yishga va aloqa vositalarini telefon tarmog'idan uzib qo'yishga haqli.

3.3. Abonentning aybi bilan xizmatni ko'rsatish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, jumladan telefon va boshqa oxirgi qurilmalar uzib qo'yilgan holda, ular ishlamagan vaqt uchun to'lov butunlay to'lanishi kerak.

3.4. Operator ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tariflar o'zgargan taqdirda, u bu haqda telefonogramma yoki ommaviy axborot vositalari orqali Abonentni xabardor qiladi va taraflar ko'rsatiladigan xizmatlar uchun yangi tariflar to'g'risidagi bayonnomani imzolaydilar. Abonent bayonnomani imzolashdan sababsiz bosh tortgan taqdirda Operator ushu shartnomani bir taraflama bekor qilishni talab qilishga haqli.

3.5. Abonent ko'rsatilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, u to'lov amalga oshirilayotgan kunda amalda bo'lgan tariflar bo'yicha haq to'laydi.

3.6. Abonent ko'rsatilgan xizmat uchun olingen haq summasiga nisbatan e'tirozlar bo'lgan taqdirda (so'zlashuv davom etgan vaqt, so'zlashuv kimga taalluqliligi, qaysi telefon raqami orqali so'zlashilganligi va hokazo), u hisobvaraqturaga berilgan paytdan boshlab 30 kun davomida Operatorning hisob-kitob guruhiga yozma ravishda murojaat qilishi va Operatorning xodimlari bilan birgalikda talab qanchalik asosli ekanligini tekshirishda ishtirok etish uchun o'zining vakilini yuborishi lozim.

4. XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

4.1. Operator ushu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan xizmatlarni "Mahalliy telefon aloqasidan foydalanish Qoidalari" va shartnoma shartlariga muvofiq shaxsan o'zi ko'rsatishi shart.

4.2. Telefon aloqasi va telegraf xizmati kechayu-kunduz ko'rsatiladi. Operator Abonentga har oyda ko'rsatilgan telefon aloqasi xizmatlarining ro'yxatini va ko'rsatilgan xizmat haqi miqdorini qayd etgan holda har oy tugagandan so'ng 3 kun ichida taqdim etadi.

4.3. Operator tomonidan ko'rsatiladigan kommunikatsiya xizmatining turlarini biridan foydalanishdan voz kechgan taqdirda, Abonent bu haqda yozma ravishda Operatorga bildirishnomaga berishi lozim. Operator Abonentning bildirishnomasini olib uning xodimlari aloqa xizmatidan voz kechganlikni tegishli tartibda rasmiylashtirgan kundan boshlab voz kechilgan xizmat turi uchun haq hisoblash to'xtatiladi.

4.4. Telefon tarmog'i abonenti bo'lmagan yuridik shaxs telefonlashtirilgan xonani (bino)larni egallagan yoki Abonent o'z hisobida turuvchi telefon o'tkazilgan xonani (binoni) boshqa shaxsga ijaraga bergan taqdirda har bir telefon apparati uchun ro'yxatga olish to'lovi to'langan holda 1 oylik muddat ichida ijarachi yoki boshqa uchinchi shaxs nomiga qayta rasmiylashtirishi lozim. Ushbu shartlar bajarilmagan taqdirda Abonentning telefonini tarmoqdan uzib qo'yiladi va telefon raqami Operatorga qaytarib beriladi.

4.5. Qo'riqlash signalizatsiyasi uchun foydalaniladigan telefon apparatlari qo'riqlash bo'limiga yozma bildirishnomaga berilgandan so'ng 30 kun ichida juftlangan sxemaga ulanadi.

4.6. Abonentning yozma arizasiga ko'ra, uning arizasida ko'rsatilgan muddatga telefon raqami saqlangan va abonentning saqlanishi uchun abonenment to'lovi to'langan holda apparat tarmoqdan vaqtincha uzib qo'yilishi mumkin.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI. NIZOLARNI HAL QILISH

5.1. Operator ushu shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, u keltingan zararni Buyurtmachiga 360 to'lig'icha to'lashi shart, lekin bu to'lov ushu shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar bahosining ikki bajarvardidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

5.2. Shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi amalda qonun hujjatlariga, jumladan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni va Mahalliy telefon aloqasidan foydalanish Qoidalari muvofiq belgilanadi.

5.3. Mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi

Savdosanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

6. SHARTNOMA NUSXALARI SONI, UNI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnoma ikki asl nusxada tuzilgan bo'lib, birinchi nusxasi Operatorda va ikkinchi nusxasi Abonentda saqlanadi.

6.2. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatlari shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

6.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6.4. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnomasi yuborishi shart.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'limgan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada 361 bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir.

7.2. Tegishli Savdo-sanoat palatasi yoki boshqa vakolatlari organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. o'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzlusiz 1 oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddatda bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnomasi yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. MAXSUS SHARTLAR

8.1.

9. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

"Operator"

"O'zbektelekom" AK Qashqadaryo filiali
Dexqonobod TKB

Manzili Qarashina q'o'rg'oni

tel\faks 75 612-10-12, 75 612-13-84

x\r 20210000504074838334

Bank nomi Toshkent shaxar Aloqa bank MFO;
00401

OKED 52300

Texnik qo'llab-quvvatlash xizmati:

Тел.: 75 612-11-08

«Abonent»

Dehqonobod tuman tibbiyot birlashmasi

Manzili Qarashina Guliston 5

tel\faks 75-612-13-86 75-612-16-48

sh\xv 100022860102127073101054007

СТИР 201582251 ОКЭД 91511

Узб. Респ. Молия Вазирлиги Газначилиги

Газна X/p 23402000300100001010

Банк номи Тошкент шахар Марказий банк
XKKM

МФО 00014 ОКЭД 86100

Газначилик булинмаси СТИРи 201122919



Рахбар _____ Sh. Amirov

M.O'



D. Abdumurodov

M.O'

» Yanvar 2022-yil
—sonli abonent
shartnomasiga
1-ilova

Ko'rsatiladigan xizmatlar

1. Xizmatlar ro'yxati va xizmatlar uchun tariflar

O'Ichov birligi - Milliy valyuta (so'm)

t/r	Xizmatlar nomi	QQS bilan narxi (miqdori)	Asos	Miqdori	15% QQS bilan To'lov miqdori, (so'mda)
1	2	3	4	5	6
I. Bir martalik to'lovlar					
1.1	Ro'xatdan o'tish uchun bir martalik to'lov	-	Preyskuran	-	-
II. Har oylik abonent to'lovleri					
2.1	Dehqonobod tibbiyot birlashmasi uchun o'rnatilgan tarifiga asosan har oylik telefon abonent to'lovi	4 950 000	Preyskuran	50	742 500
Jami (oldindan to'lov) bir oy uchun					4 950 000

Jami oldindan to'lov miqdori bir oy uchun 4 950 000,00 so'm, shu jumladan, QQS 15 % 742 500,00 miqdorida.

Shartnomaning umumiyligi miqdori 2022-yil 3 oyi uchun 14 850 000 so'mni tashkil etadi. Undan 4 950 000,00 so'm miqdorida oylik abonent to'lovi hamda 0,00 so'm bir marotabalik ulanishi uchun ro'yxatga olish to'lovi. Shartnoma bo'yicha to'lov summasidan oshgan hollarda ortiqcha sarflangan (limit) trafik uchun to'lovlar xisob-fakturaga asosan amalga oshiriladi.

OPERATOR:ABONENT:

"O'zbektelekom" AK _____
Qashqadaryo filial

Operator nomidan:



Abdimurodov Dilshod

/imzo/

Dehqonobod tuman tibbiyot birlashmasi

Abonent nomidan:



Shavkat Amirov

/imzo/

m.o'.